



“Open bank” aksiyadorlik jamiyati  
Boshqaruvining

2026-yil “15” noy dagi  
1505/3 -sonli yig‘ilish bayonnomasiga  
1-ilova

**“Open bank” aksiyadorlik jamiyatida garov obyektini bosqichma-bosqich  
garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish tartibiga  
kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. Tartibning 9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Ariza Bank tomonidan ro‘yxatga olinadi va ro‘yxatga olingan kundan boshlab 15 (O‘n besh) kun ichida ko‘rib chiqiladi. Qo‘shimcha o‘rganish, qo‘shimcha hujjatlarni talab qilish zarur bo‘lganda, bu muddat 30 (O‘ttiz) kungacha uzaytirilishi mumkin.”.

2. Tartibning 12-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Moliyalashtirish qo‘mitasining ijobiy qarori qabul qilingan taqdirda garov obyektini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish yuzasidan arizachiga 3 (Uch) ish kuni ichida yozma yoki elektron xabarnoma yuboriladi va bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.”.

3. Tartibning 13-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Garov obyektini bosqichma-bosqich garovdan chiqarish yoki garov narsasini almashtirish masalasi Bankning Moliyalashtirish qo‘mitasi tomonidan rad etilsa, bu haqda arizachiga rad etish sabablari bayon etilgan yozma yoki elektron xabarnoma 3 (Uch) ish kuni ichida yuboriladi.”.